

YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA DAVLAT MOLIYA-SOLIQ SIYOSATI ORQALI HUDUDLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Sayfiddinov Isfandiyor Asroriddinovich

Termiz davlat universiteti “Turizm” kafedrasida o‘qituvchisi

Artikov Umid Musurmon o‘g‘li

*Termiz davlat universiteti 1-bosqich “Turizm va mehmondo‘stlik”
ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu ushbu tahlildada O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida davlat moliyaviy-soliq siyosatini amalga oshirish orqali hududlarning moliyaviy barqarorligini oshirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili asosida soliqqa oid imtiyozlarning iqtisodiy samarasiga baho berilgan. Maqolada hududiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun amaldagi yondashuvlar (hududlarni toifalarga ajratib, soliq stavkalarini pasaytirish va boshqalar) hamda yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar (qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun soliq preferensiyalari va boshqalar) bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, moliya-soliq siyosati, hududiy moliyaviy barqarorlik, soliq imtiyozlari, yashil budjetlashtirish, barqaror rivojlanish, fiskal barqarorlik, mahalliy byudjet daromadlari, ekologik investitsiyalar, innovatsion moliyalashtirish

Аннотация: В статье научно исследованы направления повышения финансовой устойчивости регионов посредством реализации государственной финансово-налоговой политики, основанной на принципах «зелёной» экономики в Республике Узбекистан. На основе анализа официальных статистических данных дана оценка экономической эффективности налоговых льгот. Разработаны рекомендации по актуальным подходам к обеспечению региональной финансовой устойчивости (категоризирование регионов, снижение налоговых ставок и т.д.) и мерам стимулирования перехода к «зелёной» экономике (налоговые преференции для возобновляемых источников энергии и т.д.).

Ключевые слова: зеленая экономика, фискальная политика, региональная финансовая стабильность, налоговые льготы, зеленое бюджетирование, устойчивое развитие, фискальная устойчивость, доходы местных бюджетов, экологические инвестиции, инновационное финансирование.

Abstract: *In this analysis scientifically studies the directions of increasing the financial stability of regions through the implementation of state financial and tax policy based on the principles of a green economy in the Republic of Uzbekistan. The article assesses the economic effectiveness of tax incentives based on the analysis of official statistical data. The article develops recommendations on current approaches to ensuring regional financial stability (dividing regions into categories, reducing tax rates, etc.) and incentives that stimulate the transition to a green economy (tax preferences for renewable energy sources, etc.).*

Keywords: *green economy, fiscal policy, regional financial stability, tax incentives, green budgeting, sustainable development, fiscal sustainability, local budget revenues, environmental investments, innovative financing.*

Kirish

Bugungi kunda jahon hamjamiyati barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida iqtisodiyotda "yashil" modelga o'tishga intilmoqda. Atrof-muhit muammolari va iqlim o'zgarishi tahdidlari shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy iqtisodiy o'sish modellarini qayta ko'rib chiqib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik tamoyillarini iqtisodiyotga chuqur integratsiya qilish zarur. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayondan chetda qolmay, 2018 yilda Parij bitimini ratifikatsiya qildi va issiqxona gazlari chiqarilishini 2030 yilga kelib 2010 yil darajasiga nisbatan 10 foizga qisqartirish majburiyatini olgan [6].

Mamlakatda 2019 yilda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha 2019–2030 yillarga mo'ljallangan milliy Strategiya qabul qilindi. Ushbu Strategiyada iqtisodiy islohotlarga yashil tamoyillarni integratsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan [7]. Yashil iqtisodiyot tamoyillari uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim qoida va yondashuvlarni nazarda tutadi: xususan, milliy rivojlanish maqsadlarini ekologik va ijtimoiy jihatlar bilan uyg'unlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklanishiga erishish, ishlab chiqarish va iste'molda energiya samaradorligini oshirish, innovatsion va toza texnologiyalarni keng joriy etish, "yashil" ish o'rinlarini yaratish orqali aholi farovonligini yuksaltirish kabi ustuvorliklar belgilangan [9]. Rasmiy hujjatlarda "yashil iqtisodiyot" atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: yashil iqtisodiyot – atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot [10].

Ushbu sharoitda tadqiqotdada ko'tarilayotgan masala – yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda davlatning fiskal (moliya va soliq) siyosati orqali hududlarning moliyaviy barqarorligini oshirish – alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu tahlilning maqsadi davlat byudjet-soliq siyosatida yashil tamoyillarni tatbiq etish tajribasi va istiqbollarini tahlil etish,

solliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda hududiy moliyaviy barqarorlikka erishish uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning davomida avvalo mavzu bo'yicha nazariy manbalar va oldingi tadqiqotlar sharhi beriladi, so'ngra rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili asosida O'zbekistonda hududlar kesimida moliyaviy barqarorlik va solliq siyosati holati o'rganiladi. Xususan, solliq imtiyozlarining ko'lami va ularning hududiy taqsimoti, iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi. Nihoyat, yashil iqtisodiyot tamoyillarini hisobga olgan holda fiskal siyosatni yanada takomillashtirish, hududlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan xulosalar va tavsiyalar keltiriladi.

Adabiyotlar sharhi

“Iqtisodiyotning yashillashuvi” tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda nafaqat ekologlar, balki iqtisodchilar va moliyachilar e'tiborida ham bo'lib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashi barobarida ekologik xavf va resurs tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyotdir[9]. Boshqacha aytganda, yashil iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish ekologik halokat evaziga emas, balki resurslardan samarali va qayta tiklanuvchan tarzda foydalangan holda erishiladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalarini qabul qilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda “yashil o'sish” konsepsiyalari milliy siyosatga integratsiya qilingan.

Yashil fiskal siyosat – bu davlat byudjet-solliq choralarini ekologik barqarorlikni rag'batlantirishga yo'naltirish demakdir. Nazariy jihatdan, yashil fiskal mexanizmlarning mantiqiy asosi bozordagi tashqi samaradorlikni oshirmagan xarajatlarni (tashqi omillarni) ichki narxlarga kiritishdir. Masalan, atrof-muhitni ifloslantiruvchi faoliyat yoki mahsulotlarga qo'shimcha solliq solish orqali ularning ijtimoiy xarajatlari qoplanadi va toza, ekologik mahsulotlar raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Bu yondashuv bozorning nosozliklarini tuzatish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, “yashil solliqlar” joriy etish – masalan, karbonat angidrid chiqindilariga solliq solish (karbon solliqlari), chiqindilar uchun yig'imlar yoki plastik mahsulotlarga solinadigan solliq – atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish barobarida byudjetga qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi. Ayrim davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil solliqlar davlat g'aznasiga sezilarli daromad keltirishi va bu mablag'larni qaytadan ekologik loyihalarga yo'naltirish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya va Kanadada karbon solig'idan tushgan daromadlar qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga sarflanmoqda.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalari ham yashil iqtisodiyotga o‘tishda keng qo‘llaniladigan fiskal instrumentlardandir. Davlat muayyan ekologik maqsadlarga erishishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlarini joriy etishi mumkin. Bunda ekologik toza texnologiyalarni joriy qilgan korxonalarni soliqdan ozod qilish yoki stavkalarni kamaytirilgan holda qo‘llash, aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga “yashil” faoliyat uchun subsidiyalar berish kabilar kiradi. Jahon amaliyotidan misollar keltiradigan bo‘lsak, Fransiyada 2015 yilda qabul qilingan “Yashil o‘tish to‘g‘risida”gi qonun doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejamkor texnologiyalar sohasidagi startaplar uchun soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlari joriy etilgan. Germaniyada qayta tiklanadigan energetika ishlab chiqaruvchilari uzoq muddatli soliq ta’tillaridan foydalanadilar, AQSHning ayrim shtatlarida quyosh panellari o‘rnatgan xonadonlar uchun soliq kreditlari (imtiyozli chegirmalar) beriladi. Ushbu choralar “yashil” sohalarga investitsiyalarni rag‘batlantirib, ekologik innovatsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va fiskal siyosat kesishmasiga oid ilmiy ishlar endi shakllanib bormoqda. So‘nggi yillarda bir qator olimlar iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil” asosda rivojlantirish masalalarini yoritmoqdalar. Jumladan, mahalliy mualliflar tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bevosita soliqlar roli hamda mavjud soliq imtiyozlarining samaradorligi tahlil qilingan tadqiqotlar mavjud. Ba’zi ishlar hududlarning soliq salohiyati, ularning byudjet daromadlarini oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda hududlar o‘rtasida soliq bazasidagi tafovutlarni kamaytirish uchun takliflar bildirilgan. Xususan, Ismoilov M.Q. va boshq. (2024) hududlarning soliq potensialini oshirishda byudjet-soliq siyosati choralarini xorijiy tajriba asosida tahlil qilganlar[11]. Ushbu tadqiqotlarda hududiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun mahalliy soliqlar bazasini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali soliqlar tushumini oshirish masalalari yoritilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida so‘nggi yillarda soliq yengilliklari va imtiyozlarining roli sezilarli oshdi. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, faqat 2021 yil davomida jami 53 561 ta xo‘jalik yurituvchi sub’ektga turli soliqlar bo‘yicha 70 644 ta holatda soliq imtiyozlari qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu imtiyozlar summasi 34,9 trillion so‘mni tashkil etdi[1]. Bu shuni anglatadiki, agar mazkur imtiyozlar bo‘lmaganda edi, davlat byudjetiga qo‘shimcha 34,9 trln so‘m soliq tushgan bo‘lardi (ya’ni imtiyozlar tufayli shuncha mablag‘ olinmagan). Mazkur summa Yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning 4,6 foiziga teng bo‘ldi hamda 2020 yilgi jami soliq tushumlarining 26,7 foizini tashkil qildi[1]. Ta’kidlash joizki, global miqyosda soliq imtiyozlari (soliq xarajatlari deb ham yuritiladi)

hajmi ko‘pdan beri YAIMning 3–5% atrofida saqlanib keladi. Demak, O‘zbekistondagi ko‘rsatkich ham jahon amaliyotiga yaqin, hatto biroz yuqori. Bu soliq imtiyozlari byudjet uchun sezilarli darajada “qimmat” tushayotganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda soliq imtiyozlarining hajmi sezilarli darajada o‘shib bormoqda. Quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida berilgan soliq imtiyozlari hajmi va ularning YAIMga nisbati keltirilgan.

Yil	Soliq imtiyozlari hajmi (trln so‘m)	Imtiyozlarning YAIMga nisbati (%)
2020	56,3	9,7
2021	34	4,6
2022	64,1	7,2
2023	69,7	6,5
2024	~75	~5,2

1-jadval. 2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlari hajmi va YAIMga nisbati ⁶³

1-jadvalga ko‘ra 2020-yilda pandemiya sharoitida berilgan soliq imtiyozlari va yengilliklar tufayli tadbirkorlar ixtiyorida 56,3 trln so‘m mablag‘ qoldi. Bu summa 2020-yil YAIMning qariyb 9,7 foiziga teng bo‘lgan (YAIM – 580,2 trln so‘m). 2021-yilda 34 trln so‘m imtiyoz qo‘llanilib, bu 4,6 % YAIMga teng bo‘ldi. 2022-yilda soliq imtiyozlari hajmi 64,1 trln so‘m bo‘lib, YAIMga nisbatan 7,2 % ni tashkil etdi (YAIM – 888,3 trln so‘m). 2023-yilda imtiyozlar 69,7 trln so‘m ga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich YAIMning 6,5 % atrofida tashkil etdi (YAIM – 1 066,5 trln so‘m). 2024-yil yakuniga doir rasmiy ma‘lumotlar hozircha to‘liq e‘lon qilinmagan; biroq 2024-yil 1-yarim yilligida 39,0 trln so‘m soliq imtiyozi qo‘llangani ma‘lum. Bu tendensiyadan kelib chiqib, 2024-yil uchun soliq imtiyozlari hajmi taxminan 75 trln so‘m (YAIMga ~5 %) atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

Biroq soliq imtiyozlari iqtisodiyotga qanday ta‘sir ko‘rsatmoqda? Ijobiy jihatdan qaralganda, imtiyozlar tadbirkorlik faolligini oshirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun muhim rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi 2021 yil misolida ham imtiyozlar ta‘sirida yangi sub‘ektlar soni 170 mingtagacha ko‘paygan va 500 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratilganligi ma‘lum qilindi[2]. Bundan tashqari, ayrim imtiyozlar eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilib, natijada qator korxonalar ilk bor tashqi bozorlarga chiqishga muvaffaq bo‘lganlari qayd etilgan. Soliq

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi va ochiq rasmiy ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yengilliklari ayrim tarmoqlarda mahsulot tannarxini pasaytirib, raqobatbardoshlikni oshirganini ham ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, imtiyozlar tizimining hududiy ta’siri ham diqqatga sazovordir. Mamlakatimiz Prezidentining 2022 yil noyabr oyidagi yig‘ilishida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, hududlar kesimida soliq imtiyozlarining 31 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan, holbuki Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarining ulushi 2 foizdan ham oshmagan. Boshqa viloyatlar ulushi ham xuddi shunday past darajada bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlar imtiyozlardan foydalanish asosan iqtisodiy salohiyati yirik va faolligi yuqori hududlarda to‘planganini anglatadi. Albatta, bunga qator omillar sabab bo‘lishi mumkin – xususan, Toshkent shahrida yirik soliq to‘lovchilar ko‘proq jamlangani, imtiyozlar beriladigan investitsion loyihalarning aksari markazda yoki sanoati rivojlangan hududlarda tatbiq etilayotgani va hokazo. Natijada soliq imtiyozlari iqtisodiy faolligi sust bo‘lgan chekka hududlarda deyarli “yeta olmayapti”. Bu holat hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni yanada kuchaytirishi ham mumkin: rivojlangan hududlar imtiyozlardan bahramand bo‘lib yanada tezroq o‘sar, qoloq hududlar esa rag‘batsiz qolgani bois o‘sish sur’ati ortda qolaverar edi.

Yuqoridagi xavfni anglagan holda, hukumat tomonidan so‘nggi paytda soliq imtiyozlarini hududlarning rivojlanish darajasidan kelib chiqib diferensiallash choralari ko‘rilmoqda. 2023 yil 1-yanvardan kuchga kirgan “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimi” to‘g‘risidagi PF-287-son Farmonga muvofiq barcha tuman va shaharlar 5 toifaga ajratildi. Ushbu toifalarga qarab turli soliq imtiyozlari paketi joriy etildi. Xususan, eng qoloq hisoblangan 5-toifa tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va o‘sha hududning o‘zida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub’ektlari (yirik soliq to‘lovchilar va davlat korxonalari bundan mustasno) uchun asosiy soliqlar bo‘yicha stavkalar keskin tushirildi: foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha esa hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida (ya’ni 99% chegirma bilan) to‘lash tartibi joriy qilindi. 4-toifa tumanlarda esa aylanma solig‘ining bazaviy stavkasi 3 foiz etib belgilandi (umumiy stavka 4% edi), shuningdek viloyat hokimliklariga ushbu hududlarda mol-mulk va yer soliqlari stavkalarini amaldagi eng kam stavkaning 0,3 qismigacha kamaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan qat’iy summadagi daromad solig‘ini 0,5 koeffitsiyentgacha pasaytirish vakolati berildi. Bu chora-tadbirlar qoloq hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalar jalb qilish va yangi ish o‘rinlari yaratishga kuchli turtki berishga qaratilgan. Natijada, qisqa muddatda byudjet tushumlari kamayishi mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatda hudud iqtisodiy salohiyatining

oshishi hisobiga byudjet daromadlari barqarorlashadi va hatto ko‘payadi degan strategik maqsad ko‘zda tutilgan.

Yuqorida soliq imtiyozlari va hududiy fiskal siyosatning umumiy manzarasi ko‘rib chiqildi. Endi esa ushbu jarayonlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarining roli va ahamiyatini tahlil qilamiz. Aslida, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish maqsadida fiskal vositalardan foydalanish allaqachon boshlangan. Jumladan, 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida bir qator yashil soliq imtiyozlari nazarda tutilgan. Soliq kodeksining 414-moddasiga muvofiq, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (quvvati 0,1 MVt va undan ortiq) o‘rnatgan yuridik shaxslar ushbu qurilmalar foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab 10 yil muddatga mol-mulk solig‘idan ozod etiladi[4]. Bu imtiyoz, masalan, o‘z hududida quyosh elektr stansiyasi yoki shamol turbinalari o‘rnatgan korxonalarga tatbiq etiladi va ularning mulk solig‘i bo‘yicha xarajatlarini nolga tushiradi. Shuningdek, Soliq kodeksining 421 -, 428- va 436-moddalarida jismoniy shaxslar uchun yashil imtiyozlar belgilangan: xususan, turar joyida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh panellari, shamol generatori va h.k.) foydalanuvchi fuqaro ushbu qurilmalarni o‘rnatgan oydan boshlab 3 yil muddatga o‘z uyiga hisoblanadigan mol-mulk va yer soliqlarini to‘lashdan ozod qilinadi[5]. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari negizida energiya ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar ushbu uskunalar egallagan yer uchastkalari uchun 10 yil muddatga yer solig‘idan ozod etiladi[5].

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosidagi fiskal choralar hududlar moliyaviy barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Avvalo, hududiy byudjet xarajatlarida tejamkorlik va natijadorlik oshadi. Masalan, mahalliy hokimiyatlar o‘z balansidagi ijtimoiy obyektlarda (maktab, bog‘cha, shifoxona va boshqalar) quyosh panellari o‘rnatib, energetika samaradorligini oshirsa, uzoq muddatda kommunal xarajatlarni sezilarli qisqartirishi mumkin. Bu tejalgan mablag‘larni hududning boshqa ehtiyojlariga yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ladi. Qolaversa, yangilanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi obyektlar soni oshgani sayin, elektr ta’minotidagi uzilishlar kamayadi, diesel generatorlar kabi qimmat yechimlarga ehtiyoj pasayadi – bularning barchasi mahalliy moliya barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida, O‘zbekiston hududlarining moliyaviy barqarorligini oshirish borasida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Soliq imtiyozlarini manzilli va shaffof taqsimlash. Imtiyozlarni hududlar va tarmoqlar bo‘yicha differensiallash choralarini davom ettirish lozim. 2023 yildan joriy qilingan hududiy toifalarga asoslangan soliq yengilliklari mexanizmini muntazam tahlil qilib, zarur bo‘lganda tuzatishlar kiritish, qamrovini kengaytirish mumkin. Masalan, 5 -toifa hududlar ro‘yxatini qayta ko‘rib, iqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilangan tumanlarni unda

chiqarish, yoki aksincha, qoloq hududlar paydo bo'lsa, ularga maxsus rejimni tatbiq etish. Bu jarayonda imtiyozlarning samaradorligi ko'rsatkichlari (yaratilgan ish o'rinlari soni, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, tushumlarning kelajakda oshishi va h.k.) asosida qaror qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilishi zarur.

- Yashil soliqlar va yig'implarni joriy etish. Davlat Fiskal strategiyasida belgilanganidek, "yashil soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish" ustida ish olib borish lozim. Xususan, bosqichma-bosqich uglerod chiqarilishiga kvota va to'lovlarni joriy etish, ifloslantiruvchi moddalar uchun ekologik yig'implarni oshirish mumkin. Bunda olinadigan qo'shimcha daromadlarni bevosita hududlardagi atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlariga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

- Yashil budjetlashtirishni kengaytirish. Hozircha markirovka usulida boshlangan "yashil budjet" tamoyillarini kelgusida barcha darajadagi – jumladan, mahalliy byudjetlar darajasida ham – to'liq joriy etish kerak. Bu degani, viloyatlar va tumanlar byudjetini tuzishda har bir loyiha yoki dasturga ajratilayotgan mablag'ning atrof-muhitga ta'siri baholanadi, "yashil xarajatlar" ulushi hisoblab boriladi. Masalan, viloyat byudjetidan transport sohasiga ajratilayotgan xarajatlar ichida ekologik toza jamoat transportini rivojlantirishga qancha mablag' mo'ljallangani aniqlanadi. Bunday yondashuv mahalliy byudjet mablag'larining samarasini oshirishga va ularni behuda sarflashning oldini olishga ko'maklashadi.

- Hududlarda yashil investitsiyalar muhitini shakllantirish. Har bir viloyat va tumanda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib yashil investitsiya loyihalari portfeli tayyorlanishi lozim. Masalan, Surxondaryo viloyati quyoshli kunlar soni ko'p bo'lsa – quyosh energetikasiga oid loyihalar, Tog'li hududlar mikroGES qurilishi bo'yicha loyihalar, katta shaharlar chiqindini qayta ishlash va jamoat transportini elektrlashtirish bo'yicha loyihalarni taklif etishi mumkin.

- Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilish. Hududiy barqarorlik va yashil rivojlanish faqat davlat harakatlari bilan to'liq erishilmaydi, bunda jamiyat va biznesning faol ishtiroki muhim. Shu bois, har bir hududda "yashil tadbirkor" tushunchasi targ'ib qilinib, ekologik mas'uliyatli biznes yuritayotgan sub'ektlarni rag'batlantirish kerak. Yaqinda 2025 yil "Atrof-muhitni muhofaza qilish yili" doirasida taklif etilgan "Yashil tadbirkor" maqomi shuni anglatadiki, o'z faoliyatida ko'kalamzorlashtirish, resurs tejamkorligi va chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilgan tadbirkorlar qator imtiyozlarga ega bo'ladilar. Ular uchun ayrim byurokratik tartib-taomillar soddalashtiriladi, ekologik tekshiruvlardan vaqtincha ozod etiladi va davlat buyurtmalarida ustuvorlik beriladi.

Yuqoridagi tavsiyalar kompleks tarzda amalga oshirilsa, hududlarda davlat moliya - soliq siyosati yanada barqaror rivojlanish yo'liga yo'naltiriladi. Bu esa, o'z navbatida,

hududlarning moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanishiga, mahalliy byudjetlar daromad bazasi kengayishiga olib keladi. Eng muhimi, bunday islohotlar natijasida iqtisodiy o'sish sifati yaxshilanadi – ya'ni o'sish jarayonida tabiatga zarar yetkazilmaydi, kelajak avlodlar uchun resurslar saqlanadi va shu bilan birga hozirgi avlod uchun yuqori farovonlik ta'minlanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini davlat moliya-soliq siyosatiga integratsiya qilish – bu nafaqat ekologik barqarorlik talabi, balki hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning yangi samarali usulidir. Yuqoridagi tahlillar O'zbekistonda soliqqa oid imtiyozlar va fiskal rag'batlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynayotganini, shu bilan birga ularning samaradorligini oshirish va hududlar o'rtasida adolatli taqsimlash masalasi kun tartibida turganini ko'rsatdi. Mamlakat rahbariyati tomonidan so'nggi yillarda hududiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida soliq siyosatini diferensiallash bo'yicha qabul qilingan qarorlar (hududlarni 5 toifaga ajratib, eng qoloq tumanlarda soliq stavkalarini keskin pasaytirish va boshqalar) – hududlar moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan dadil qadamdir. Bu bilan birga, iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilash, ya'ni ekologik zararni kamaytirgan holda rivojlanishga erishish maqsadida qator soliq va byudjet imtiyozlari joriy etildi. Jumladan, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun soliq yengilliklari tizimi yaratildi (quyosh va shamol elektr uskunalariga 10 yillik soliq ta'tili va boshqalar), yashil loyihalarni moliyalash uchun innovatsion yechimlar (yashil obligatsiyalar emissiyasi va boshqalar) yo'lga qo'yildi.

Ushbu siyosat choralarining umumiy kutilayotgan samarasini quyidagicha ifodalash mumkin: hududlarda iqtisodiy faoliyat kengayadi, mahalliy byudjetlar daromad manbalari ko'payadi va barqarorlashadi, ayni paytda ekologik jihatdan bardavom infratuzilma va sanoat shakllanadi. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan fiskal siyosat tufayli kelajak avlod zimmasiga ortiqcha ekologik va moliyaviy yuk qoldirmagan holda, bugungi rivojlanish ehtiyojlarini qondirish imkoni paydo bo'ladi.

Tadqiqotda o'tkazilgan tahlil va hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat moliya-soliq siyosatini hududlar kesimida takomillashtirish jarayonida yashil tamoyillarni chuqur integratsiya qilish zarur. Bu integratsiya uch tomonlama foyda keltiradi: birinchidan, davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar barqaror daromad manbalariga ega bo'ladi (yangi soliqlar va samarali imtiyozlar hisobidan); ikkinchidan, iqtisodiy o'sish sur'ati barqaror va sifati yuqori bo'ladi (innovatsion va ekologik toza ishlab chiqarish hisobidan); uchinchidan, atrof-muhit holati yaxshilanadi, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga moslashish imkoni oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kun.uz (2022). “Soliq imtiyozlari: Ochiqlanayotgan ma’lumotlar yetarlimi?” Kun.uz moliya yangiliklari, 9-fevral 2022.
2. Sputnik O‘zbekiston (2022). “Soliq imtiyozlari hududlarning rivojlanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi.” SputnikNews uz, 1-noyabr 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (2019). “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” PQ-4477-son, 2019-yil 4-oktabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2022). “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-269-son, 30.12.2022.
5. Akmaljon Abduvahobov (2022). “Muqobil energiyadan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari.” O‘zA – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 2-dekabr 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi (2025). ““Yashil tadbirkor” maqomi kimlarga beriladi va ular qanday imtiyozlarga ega bo‘ladi?” Vazirlik rasmiy sayti yangiliklari, 13-yanvar 2025.
7. CEDR.uz ilmiy platformasi (2024). Ahmadjonov I. va boshq. “Milliy iqtisodiyotda yashil moliya instrumentlaridan foydalanishning joriy holati tahlili.” CEDR ilmiy maqolasi, 4-oktabr 2024.
8. Moliya vazirligi (2023). “O‘zbekiston Respublikasi fiskal strategiyasi 2025–2027.”
9. Ismoilov M.Q. (2024). “Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda hududlarning soliq potensialini oshirish.” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy jurnali, 2024 yil, №5 (104-111-betlar).
10. 2025-2027 yillar uchun “Fiskal strategiya”, O‘zbekiston respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi.
11. Moliyaviy barqarorlikni taminlashda hududlarning soliq potensialini o‘rni. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” jurnali, 2024 yil,(104-111- betlar)